

110. Tenglamalarni soddalashtirish

Yondosh mavzu:
musobaqa.

Tenglamalar, tarkibli
tenglamalar.



1. Tenglamalarning ildizini toping.

$$242 \cdot \square = 484$$

$$\square \cdot 3 = 369$$

$$554 \cdot \square = 0$$

$$145 + \square = 245$$

$$\square + 10 = 172$$

$$\square - 0 = 516$$

$$400 : \square = 200$$

$$\square : 3 = 100$$

$$\square \cdot 1 = 0$$

2. Tenglamalarni soddalashtiring va ularni tekshirishlar bilan yeching.

$$x \cdot 3 = 36 \cdot 224 + 73\,560$$

$$560 : y = 27 \cdot 199 - 5\,293$$

3. O'zingizga yoqqan tenglamalardan tuzilgan zanjirni tanlang. Zanjir bo'yicha barcha tenglamalarni yeching. Kim birinchi bo'lib yechdi?

$$x + 56 = 667$$

$$y : (12 \cdot 4) = 5$$

$$z + (320 : 16) = 837$$

$$3 \cdot t + 168 = 402$$

$$(8 \cdot b - 88) : 2 = 24$$

$$937 - x = 238$$

$$y : (55 \cdot 7) = 6$$

$$z - (408 : 4) = 113$$

$$286 + 3 \cdot t = 742$$

$$35 : (18 - b : 8) = 5$$

4. Masalaga doir tenglama tuzing va uni yeching.

x sonini 71 ga ko'paytirib, ko'paytmaga 46 ni qo'shdik, yig'indini 6 ga bo'lgan edik, 55 soni hosil bo'ldi. x sonini toping.

Biz nimalarni bilib oldik?

Biz nimalarni o'rgandik?

Biz parallel va perpendikular to'g'ri chiziqlar bilan tanishdik.




1. Ikkita gorizontal parallel to'g'ri chiziq yasang. Ularga perpendikular ikkita to'g'ri chiziq yasang. Qanday shakl hosil bo'ldi? Uning tomonlarini millimetrlarda o'lchang. Bu shaklning perimetri va yuzini toping.

Biz koordinata nuri bilan tanishdik.



2. Sonli nurda ushbu obyektlarning koordinatalarini toping.



3. Qaysi nuqta chaproqda turadi?
A(224) yoki B(374);
C(300 058) yoki D(300 056)?

Biz koordinata burchagi bilan tanishdik.



4. Daftaringizda koordinata burchagini yasang. Bitta katakni bitta bo'linish deb oling. Koordinata burchagida quyidagi nuqtalarni ketma-ket belgilang. Nima hosil bo'ldi?
 $(5;2) \rightarrow (5;3) \rightarrow (6;4) \rightarrow (6;8) \rightarrow (7;10) \rightarrow (7;12) \rightarrow (5;12) \rightarrow$
 $(5;14) \rightarrow (7;16) \rightarrow (9;16) \rightarrow (10;17) \rightarrow (10;16) \rightarrow (11;12) \rightarrow$
 $(19;12) \rightarrow (21;9) \rightarrow (22;4) \rightarrow (21;4) \rightarrow (20;8) \rightarrow (19;8) \rightarrow$
 $(19;4) \rightarrow (18;2) \rightarrow (16;2) \rightarrow (16;3) \rightarrow (17;4) \rightarrow (17;7) \rightarrow (9;7) \rightarrow$
 $(7;2) \rightarrow (5;2).$

Biz sodda va tarkibli tenglamalarni yecha olamiz.



5. Tenglamalarni yeching.

$$t \cdot 80 = 50\,786 - 45\,986$$

$$42 - 16 : m = 40$$

$$(900 - x : 6) \cdot 12 = 8\,400$$



6. Masalaga doir tenglama tuzing va uni yeching.

Daftar x so'm turadi. Onam 15 ta daftar va penalni 16 000 so'mga sotib oldi. Barcha xarid unga 53 500 so'mga tushdi. Bitta daftar necha so'm turadi?

Biz simmetrik obyektlarni ko'ra olamiz.



7. Daftaringizga simmetriya o'qlariga ega bo'lgan harflarni yozing.

Har bir harfning tagiga uning nechta simmetriya o'qi borligini yozing.

A B T Y U O I H X M



8. Rasmni daftaringizga ko'chirib chizing. Uni bo'yashdan oldin ishchi sohani ajratib oling: tomoni 23 ta katakdan iborat kvadrat chizing.

